

IMKON SHOU

IMKON SHOU



DASTURI

DASTURI

Imkon shou dasturining “Bilag’on bolalar” intelektual o’yini.

1 – boshlovchi: Jamiyat ila berilgan salom

So’zlar ichida u dilbar, dilorom

Sizga umr tilab sizni e’zozlab

Qarshingizda egib boshlar, ta’zim bajolab

Barchangizga aytamiz salom assalom.

2 – boshlovchi: Aziz mehmonlar, davramiz ishtirokchilari. Bugungi bellashuvimizda eng hurmatli, katta tajribada javob berib, o’z bilimlarini, katta tajribaga ega bo’lgan, fidoiy ustozlarimizning savollariga javob berib, o’z bilimlarini sinaydilar.

1 – boshlovchi: Bilim – quyoshdek porloq, ummondek cheksizdir

Ilmning yo’llari emasdur oson,

Gul deb tutganingni, bo’lur tikani

O’zbekning dongini etmoqda doston

Ulug’bek shuhrati, Beruniy sha’ni.

2 – boshlovchi: Ilm olish, o’rganish shu zaminda nafas olayotgan har bir insonning burchidir. Bu burchni ado etishda bizga ustozlarimiz to’g’ri yo’l ko’rsatadilar.

1 – boshlovchi: Darhaqiqat ona Diyorimiz O’zbekiston dono ustozlari, allomalari va buyuk tarixi bilan dunyoda mashhurdir.

2 – boshlovchi: Sen muqaddas Ko’hna Turon

Ipak yo’lidan o’tgan karvon

Bugun seni taniydi jahon

Yagonasan jon O’zbekiston.

1 – boshlovchi: Hozir O’zbekistonimizning kelajagi, iqboli, qalbida oppoq orzulari to’la, bilimdoni sinfdoshlarimiz o’z bilim va salohiyati bilan o’zlarini sinaydilar. Marhamat ular bilan tanishing!

2 – boshlovchi: Dilimizda 1 kalom bor misoli malham

Tilimizda 1 kalom bor qutlug’ va ko’rkam

Ushbu kalom imon qadar yurakka tutash

Ushbu kalom jonimizga yoqqaydir otash

Shu boisdan ushbu so’zni ta’zim baholab

Mehrimiz oftob deymiz hijjalab.

Assalomu Alaykum

1 – boshlovchi: Bugun jonajon maktabimizning 4^{“B”}- sinfining eng bilimdon, eng dono va izlanuvchan o’quvchilari o’z bilimlari bilan sizlarni xushnud etadilar. Ular uch guruhga bo’linib, o’z bilimlarini sinaydilar.

I guruh-“Ziyo” II guruh-“Kamalak” III guruh-“Barkamol avlod”

1-shart tezkor savol-javob

SAVOLLAR

- 1.8-dekabr qanday kun? (konstitutsiya)
- 2.Sichqon bir daqiqada necha marta nafas oladi? (200)
- 3.Fil bir daqiqada necha marta nafas oladi? (9)
- 4.Qaysi vaqtda soatga qarab bo'lmaydi? (Uxlaganda)
- 5.Tipratikan qishda nima qiladi? (Uxlaydi)
- 6.Inson son suyagi nimadan qattiq? (Betondan)
- 7.Fil necha yil yashaydi? (85)
- 8.Navro'z so'zi qaysi tildan olingan? (Fors)
- 9.Jirafaning bo'yi necha metrgacha bo'ladi? (6)
- 10.Dunyoda nima yuguriklik? (Oy)
- 11.Odamzodda nima ko'p? (Umid,reja)
- 12.Nima hamma tilda ham gapiradi? (Aks-sado)
- 13.Qayerda osmon pastda bo'ladi? (Suvda)
- 14.Suv qayerda ustundek turadi? (Quduqda)
- 15.Bobur Mirzo qayerda tug'ilgan? (Andijon)
- 16.Parrandalar uyi? (Katak)
- 17.Sirk maydoni? (Arena)
- 18.Ko'z ko'rib quloq eshitadigan narsa? (Voqea)
- 19.Chumolining nechta tishi bor? (Tishi yo'q)
- 20.Panda nima? (Ayiqlar mushuk)
- 21.Cho'chqa osmonda tikila oladimi? (Yo'q)
- 22.Fillar bir kunda necha soat uxlaydi? (2)
- 23.Futbol o'yini boshlanmasdan hisobni aytish mumkinmi? (Ha 0:0)
- 24.Jirafa ovoz chiqara oladimi? (Yo'q)
- 25.Asalari necha kun yashaydi? (40 kun)
- 26.Ko'k kit necha yil yashaydi? (120 yil)
- 27.Timsoq tishi necha marotaba tushib chiqadi? (100 marta)
- 28.Suyuqlik emas, ichiladi? (Qasam)
- 29.G'o'za ekilgan dala? (Paxtazor)
- 30.Qachon 3-ni ko'rib 15-deymiz? (Kunduz soat 3-da)
- 31.Dengiz ostida qanday tosh bo'lmaydi? (Quruq tosh)
- 32.Ota onaning o'g'il va qizi? (Farzand)
- 33.Mevali daraxt ekilgan joy? (Bog')
- 34.Eng uzoq umr ko'radigan daraxt? (Chinor)
- 35.Bahorda birinchi bo'lib pishadigan meva? (Tut)
- 36.Qadimda sudya nima deb atalgan? (Qozi)

- 37.Armiya so'zining ma'nosi nima? (Qurollantirish)
- 38.Kecha ertaga, ertaga kecha bo'ladigan kun qaysi? (Bugun)
- 39.Qaysi joyda daryolar suvsiz, shaharlar uysiz bo'ladi? (Xaritada)
- 40.Navro'z ilk bor qayerda nishonlangan? (Eronda)
- 41.Nima yuqoridan pastga qarab o'sadi? (Sumalak)
- 42.Otadek ulug' inson kim? (Ustoz)
- 43.Kapalak necha kun yashaydi? (Bir kun)
- 44.Qaysi oylar 29 kundan iborat? (Barcha oylar)
- 45.Reklama so'zining ma'nosi nima? (Baqirmoq chaqirmoq)
- 46.Piramida so'zining ma'nosi nima? (Yonayotgan olov)
- 47.Ibn Sino tug'lgan shahar? (Buxoro)
- 48.Laylak necha daqiqa uxlaydi? (10)
- 49.Otning eng sezuvchi a'zosi nima? (tuyoq)
- 50.Mirzo Ulug'bek qaysi shaharda podshohlik qilgan? (Samarqandda)
- 51.Tarvuzning vatani qayer? (Afrika)
- 52.Sakkiz oyoqning ko'z qorachig'i qanday shaklda? (To'g'ri to'rtburchak)
- 53.Begemot qayerda dunyoga keladi? (Suv ostida)
- 54.To'rt tizzali yagona hayvon? (Fil)
- 55.Yuqori qon bosimga ega hayvon? (Jirafa)
- 56.O'zini ko'zguda taniy oladigan hayvon? (Shimpanze)
- 57.Ayiqlarda nechta tish bo'ladi? (40ta)
- 58.Tuyaqushning tuxumi necha killogram? (1,5kg)
- 59.Xonadon qo'riqchisi? (it)
- 60.Oshqovoqning vatani qayer? (Meksika)
- 61.Eng mehnatsevar hasharot? (Chumoli)
- 62."Baqlajon "so'zining ma'nosi? (Shu jon omon bo'lsin)
- 63.Tuya suzishni biladimi? (Ha)
- 64.Fil bir kunda necha kg o'tni yeydi? (200kg)
- 65.Chumolilar bir sutkada necha soat uxlaydi? (Uxlamaydi)
- 66.Yer yuzidagi eng kichik qush? (Kolibri)
- 67.Adir o'simligining nomi? (lola)
- 68.Vatan nimadan boshlanadi? (Ostonadan)
- 69.Kuyi doim taqir-tuqur,qayda ko'rsa ilon cho'qir? (Laylak)
- 70.Kakkuning bo'yi necha santimetr? (35sm)
- 71.Tugal ma'no bildiruvchi fikr? (Gap)
- 72.Jirafaning tili necha metr? (1metr)
- 73.Kenguru orqaga qadam tashlay oladimi? (Yo'q)
- 74.Delfin suv ostida necha minut nafas olmay turadi? (7minut)
- 75.Yangi tug'ilgan g'ozchaga suzish uchun necha kun kerak? (1kun)
- 76.Qushlarda nechta oshqozon bor? (2ta)
- 77.Timsoh tishi necha marotaba tushib chiqadi? (100 marta)

78. Chuvalchangning tishlari nechta? (25000ta)
79. Xonaki pashshalar qancha vaqt yashaydi? (14kun)
80. Flamingo qushi necha yil yashaydi? (85yil)
81. Inson sochi necha yilda almashadi? (7yil)
82. "Brazilya "so'zining ma'nosi nima? (qizil daraxt)
83. Qorni och odam yaxshi eshitadimi yoki qorni to'q odam?(Och odam)
84. Dunyoda eng ko'p tarqalgan qon guruhi? (1guruh)
85. Inson o'zini o'zi qitiqlaganda qitig' keladimi? (yo'q)
86. Qayerni yashil dorixona deymiz? (o'rmonni)
87. "Dinazavr"so'zining ma'nosi nima? (dahshatli kaltakesak)
88. Abu Rayhon Beruniy yaratgan globus diametri ? (5metr)
89. Fanning 29tarmog'da ijod qilgan Shayxur rais nomini olgan kim?
(Abu Ali Ibn Sino)
90. Kolibri qushining o'girligi qancha? (1,5-2gramm)
91. Qaysi ayiq qishki uyquga ketmaydi? (yalqov ayiq)
92. Tut daraxti necha yil yashaydi? (200-300yil)
94. Qushlarning hammasini qo'lga o'rgatib bo'ladimi? (yo'q)
95. Burga bir sakrashda necha santimetr balandlikka sakraydi? (33sm)
96. Delfinlarning tishi nechta? (96ta)
97. Qaysi filning xartumi bo'lmaydi? (shaxmatdagi)
98. Janubiy Meksika olmaxoni tashnalikka necha kun chidaydi? (100)
99. Necha yil o'tsa ham aynimaydigan balki, shifobaxsh bo'ladigan narsa?
(asal)
100. Tuyaning bolasi qanday ataladi? (bo'taloq)
101. Asalarining nechta oshqozoni bor? (2ta)
102. Derezaga rasm chizib ketgan musavvir? (ayoz)
103. Sahro kemasi? (tuya)
104. 1912yilda cho'kkan kema? (Titanik)
105. Tana qo'yib shoxlar chiqarib osadigan osimlik? (daraxt)
106. Mirzo Ulug'bek nechta yulduzni o'rgangan? (1018ta)
107. Donavoy savdo? (chakana)
108. Eng uzoq umr ko'radigan daraxt? (chinor)
109. A. Temur tuzuklari necha qismdan iborat? (2qismdan)
110. Oltin koni ko'p bo'lgan hudud. (Qizilqum)
111. Ibn Sino tug'ilgan shahar? (Buxoro)
112. Inson terisi necha kunda almashadi? (27kunda)
113. Flamingo qushi necha yil yashaydi? (85yil)
114. Oy yuzasi yer yuzasidan necha marta kichik? (14marta)
115. Kiyik bir yugurganda necha km. ga yuguradi? (30km)
116. Matematika so'zining ma'nosi nima? (+;-;x;:)

- 117.Fillar suv borligini necha km. uzoqlikdan his qilishadi? (5km)
- 118.Kiyik shoxi og'irligi qancha? (10kg)
- 119.Odam organizmi tarkibida nechta suyak bor? (222ta)
- 120.Yer yuzidagi eng katta qush qaysi? (tuyaqush)
- 121.Kenguru bolasini qancha vaqt xaltasida olib yuradi? (235kun)
- 122.Toshkentning avvalgi nomi nima? (Choch)
- 123.Tuya suvsiz necha kun yashaydi? (14kun)
- 124.1sutka necha soat? (24soat)
- 125.Eng kichik ko'rshapalakning og'irligi qancha? (1,7gr)
- 126.Tuyaqushning og'irligi qancha? (90kg)
- 127.Odam necha xil hidni esda saqlay oladi? (50xil)
- 128."Radio "so'zining ma'nosi nima? (nur tarataman)
- 129.Jirafaning yuragi necha kg? (7,5kg)
- 130.Eng ulkan okean? (Tinch)
- 131.Qaysi qushlar uya qurmaydi? (kakku, qayra)
- 132.Qushlar ozuqani qaysi organi bilan cho'qiydi? (tumshug'i)
- 133.Qand yonadimi? (ha)
- 134.Yomg'ir yog'ib turganda qarg'a qanday daraxtga qo'nadi? (ho'l)
- 135.Yer yuzidagi eng chuqur ko'l? (Baykal ko'li)
- 136.Eng mehnatkash hasharot? (chumoli)
- 137.1ta asalari umri davomida qancha asal yig'adi? (1gr)
- 138.Oshqovoqning vatani qayer? (Meksika)
- 139.Qizilishton bir kecha –kunduzda bolalariga necha marta ovqat keltiradi? (300marta)
- 140.Vatan nimadan boshlanadi? (ostonadan)
- 141.Barcha qushlar havoda ucha oladimi? (yo'q)
- 142.Qog'oz qayerda ixtiro qilingan? (Xitoyda)
- 143.Qutb ayig'i necha km/soat tezlikda yugura oladi? (40km/soat)
- 144.Ko'r kalamush 1kechada necha metrli tunnel qaziydi? (76m)
- 145.Qushlarning qaysi sezgi organi yaxshi rivojlangan? (ko'rish)
- 146.Baqa qachon ko'zini yumadi? (o'lganda)
- 147.Abu Rayhon Beruniy globusni yaratganlarida necha yoshda edilar? (21yoshda)
- 148.Suvga chuqurroq sho'ng'ish uchun tosh yutadigan hayvon? (timsoh)
- 149.Bolalar ta'lim-tarbiya oladigan maskan? (maktab)
- 150.Jamiyatda kishilar bilan muomalada o'zini tuta bilish,axloq,tarbi-ya nima deyiladi? (odob)

II shart Pantomimo

“Ziyo”guruhi

1. Aralash-quralash

2. “M”harfiga oid soʻzlar

3. Oquv qurollari

4. Kasblar

1. Aralash-quralash. Doʻppi tikish, osmon, dalada ishlash, mehmon kutish, uy supurish, televizorni yoqish, telefonda soʻzlashish, ovqatlanish, kir yuvish, non yopish, kiyinish, maktabga borish, sabzi toʻgʻrash, sovuq qotish, yuvinish, soch tarash.

2. “M”harfiga oid soʻzlar: mashina, maktab, muallim, motosikl, mevalar, misol yechish, musobaqa, maydalash, musiqachi, maydon, mix qoqish, mehmonga borish, magazin, maymun, masxaraboz

3. Oʻquv-qurollari: kitob, daftar, ruchka, qalam, yoʻngʻich, chizgʻich, sumka, jurnal, boʻyoq, albom, oʻchirgʻich, kundalik, rangli, qalam, qalamdon.

4. Kasblar: haydovchi, oʻqituvchi, raqqosa, rassom, aktyor, quruvchi, tikuvchi, satarosh, temirchi, shifokor, oshpaz, harbiy, sportchi, xonanda, uchuvchi.

“Kamalak”guruhi

1. Sportga oid soʻzlar

2. Aralash-quralash

3. “Ch”harfiga oid soʻzlar

4. Fanlar.

1. Sportga oid soʻzlar: kurash tushish, boks, tennis, voleybol, futbol, shax-mat-shashka, yugurish, uzunlikka sakrash, gimnastika, karate, ar-qonga tirmashib chiqish, sakrash, badantarbiya mashqlari, koptok uloqtirish, basketbol.

2. Aralash-quralash: yomgʻir, shamol, oʻzini kekayma tutish, non sindirish, salomlashish, uyga qaytish, oyoq kiyimini kiyish, soat, kitob oʻqish, misol yechish, qoʻshiq kuylash, tanaffus.

3. “Ch”harfiga oid soʻzlar: choynak, chana, chamadon, changʻi, chumchuq, choy ichish, chidash, choʻmich, chaqaloq, charxpalak, chittak, charogʻon, chopiq qilish, chigirtka, chelak.

4. Fanlar: odobnoma, matematika, ona tili, oʻqish, tabiat, jismoniy tarbiya musiqqa, mehnat, rasm, informatika, geografiya.

“Barkamol avlod”guruhi

1. Sinf jihozlari

2. Aralash-quralash

3. “P”harfiga oid soʻzlar

4. Ismlar

1. Sinf jihozlari: parta, stol, stul, doska, boʻr, eshik, doska latta, shkaf, deraza, koʻrgazma, lampochka, pol, devor.

2. Aralash-quralash: gul terish, soyabonda yurish, soch tarash, qadam tashlash, qorbo'ron o'ynash, shokolad yeyish, xafa bo'lish, arg'mchoqda sakrash, vatanimga xizmat qilaman, avtobusda borish, yomg'ir yog'ishi, Issiq, aralash, dars tayyorlash, tikish.

3. "P" harfiga oid so'zlar: parta, pianino, paypoq, piyola, paxta, parranda, piyoz, pol, pilla, pilesos, palov, poyezd, pult, pul, pakana.

4. Ismlar: Lola, Qadamboy, Boltaboy, Rayhona, Yorqinoy, Yulduzxon, G'ayrat, Ilhom, Polvon, Xursand, Tamannoxon, Ozoda, Gulrux, Oltinoy, Uzukjamol.

III shart .Test savollari.

"Ziyo" guruhi

U Afrika aholisi uylari atrofida "o'sib yotadi". O'simlik mevalarini bir necha joyidan bo'g'ib uni bog'lab qo'yadilar va kerakli kattalikda o'stiradilar. Shunda turli katta-kichiklikdagi xumcha, tog'ora va boshqa ajoyib shakldagi idishlar hosil bo'ladi. Diqqat savol, bu qaysi polis ekini.

A) oshqavoq

B) tarvuz

C) qovun

D) handalak

"Kamalak" guruhi

Xalq og'zaki ijodi insoniyatga tengdosh eng qadimiy san'atdir. Har bir xalqning fe'l-atvori, estetik didi, urf-odati va an'analari orzu-intilishlari ni aks ettiruvchi o'ziga xos ko'zgudir. Og'zaki so'z san'ati "folklor" ata-masi bilan ifodalanadi. "Folklor" atamasi ilk bor XIX asr tadqiqotchisi

Ulyam Toms tomonidan 1846-yilda qo'llangan. Diqqat savol: folklor so'zining ma'nosi nima?

A) jam bo'lib kuylash

B) o'yin, kulgu, mutoyiba

C) "folk" xalq, "lor" bilim, donishmandlik

D) yakka holatda kuylash

"Barkamol avlod" guruhi

Sharq yakkakurashlarining jozibadorligi, sirliligi bilan boshqa sport turlaridan keskin ajralib turadi. Yakkakurash turlari o'zida sharqona madaaniyat hamda udumlarni, insoniy falsafani jo' etgani bilan ajralib turadi. Taekwondo yakkakurashi ham shunday jozibador sport turlaridan biridir. Diqqat savol: "Taekwondo" so'zining ma'nosi nima?

A) oyoq jangi

B) urib yiqitaman

C) bellashamiz

D) "tae"-oyoq, "kwon"-qo'l, "do"-yo'ldir.

IV shart. Mantiqiy savol.

Yalmog'iz kampir o'rmonda bir guruh bolalarni tutib oldi va uyiga

olib ketdi.Uning uyi bir nechta edi.Shu uylarga bolalarni qamab qo'ydi

U bolalarga shunday shart qo'ydi:"Kimda kim mening masalamni to'g'ri yecha olsa,uni ozod qilaman.Agar to'g'ri yecholmasa,o'sha bola menga xizmat qiladi"-dedi. Diqqat savol :

Qorovul ertalab o'z xo'jayinini kutib oldi va unga "Bugun tunda yomon tush ko'rdim. Siz uchmoqchi bo'lgan samolyot halokatga uchraganmish. Shuning uchun bu samolyotda uchmang", debdi. Xo'jayin qorovulning aytganini qilib, o'sha samolyotga uchmabdi. O'sha samolyotning halokatga uchraganini eshitgan xo'layin qorovulga katta pul mukofot beribdi,lekin uni ishdan bo'shatib yuboribdi.Nima uchun?

V shart . Ingliz tilida so'zlashamiz.

Har bir guruhdan bittadan o'quvchi chiqib, ingliz tilida so'z aytadi. Ularning bilimdonligi hakamlar tomonidan baholanadi.

Tadbir yakunida barcha guruhlar baholari jamlanadi. O'quvchlar faxriy yorliqlar bilan taqdirlanadi.

